

TILSHUNOSLIKDA BAXT, EZGULIK, HALOLLIK KONSEPTLARI HAMDA ULARNI INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

E-mail: gulomovamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslikda Baxt, Ezgulik, Halollik konseptlari hamda ularni ingliz va o'zbek tilida ifodalanishiga bag'ishlanadi. Shuningdek, ushbu maqolada "Halollik" konseptining ingliz va o'zbek lingvomadaniyatidagi o'xshashlik va farqli jihatlari ham ochib beriladi. Halollik leksemasining asosiy, muhim xususiyatlarini axloqni tor guruh manfaatlaridan, g'oyaviy yoki amaliy fikrlardan, korporativlikdan ustun qo'yadigan halollik leksemasini me'yorlarning ob'yektiv mazmunini aks ettiruvchi umuminsoniy tabiati deb atash kerak.

Kalit so'zlar: konsept, halollik, madaniyat, milliy madaniyat, qadriyat, lingvokulturologiya, ijtimoiy-madaniy voqelik.

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlari zamon talablariga mos holda o'rganish barchamiz uchun zarurdir. Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi.

O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilish manbasi singari aks etadi. Tilda ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'siri -muloqotni ifodalaydi. Muloqot odobi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos qadriyat, urf-odatlarini, va an'analarini



hisobga olmasdan turib, o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda hurmat kategoriyasining o'z o'rnini bor. Y. S. Kubryakovaning fikriga ko'ra, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi. (1,2) Barchamizga ma'lumki yaqin yillardan buyon konsept so'ziga ham tilshunoslikning alohida o'rganadigan obyekt sifatida e'tibor qaratilmoqda. Konsept zamonaviy tilshunoslikdagi lingvomadaniy sohaning birligi hisoblanadi, chunki u til, jamiyat va uning madaniyati to'g'risidagi bilimlarni mujassamlashtiradi. Ushbu tushuncha tilda madaniyatni aks ettiradi va inson ongida olam tasvirini shakllantiradi. "N.N. Boldiryevning ta'kidlashicha, "tilda konsept alohida so'zlar va so'z birikmalari, frazeologik birliklar, gaplar va butun matnlar vositasida verballashgan bo'lishi mumkin".

Bilamizki, har bir hududning faol qo'llaniladigan ko'plab tushunchalar bor. Shu jumladan, ular og'zaki va yozma nutqda mavjudligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ushbu maqolada yuqoridagilarga tayangan holda "Halollik" konseptiga chuqurroq ta'rif berishga harakat qilamiz. Halollik so'zining lug'aviy ma'nosi: Vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish; to'g'rilik, soflik. Halollik insonni tarbiyalash orqali shakllantiriladigan go'zal fazilatlarining biridir. Ya'ni to'g'ri yo'lda yurish, o'zining mehnati bilan kun ko'rish, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning mustahkam bo'lishi uchun muloqot mobaynida, olib borilayotgan ishlari davomida rost so'zlash hamda insof bilan ish ko'rish nazarda tutiladi. Bundan ko'rinib turadiki, "Halollik" konsepti o'zaro muloqotga kirishgan shaxslar o'rtasida bir-biriga bo'lgan munosabatida asosiy o'rinni egallab, ular o'rtasidagi ishonchni ortishini shakllantiradi, o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi, har qanday faoliyat jarayonida insofli, adolatli bo'lishga undaydi. "Halol rizq izlash farz ibodatlardan keyin keladigan farzdir". Yuqoridagi misolda dadamlar, oyimlar deganda ko'plikni emas, ularga bo'lgan hurmatni ifodalangan. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo'shimcha qo'shib so'zlanadi. Masalan: Dadajon, ovqatingizni yeb oling gapini



olaylik. Ovqat soʻzi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi - ingiz qoʻshimchasini qoʻshib ovqatingiz deyiladi.

Keyingi yeb oling- feʻli ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida. Koʻplik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshgʻariy ham taʻkidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen soʻzini kichiklarga, xizmatchilarga hamda soʻzlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi boʻlgan kishilarga nisbatan qoʻllaganlar. Oʻzlaridan yuqori hurmatli kishilarni siz deganlar. Oʻgʻuzlar esa, aksincha, kattalarga sen, kichiklarga siz deb qoʻllaydilar.

Koʻplikda ham shuni ishlatganlar Ingliz tilida hurmat quyidagicha ifodalanadi: Ism bilan murojaat qilayotganda, inglizlarning familiyasini tegishli nom bilan chaqirish hurmatni ifodalaydi. Agar ismini bilmasa, janob yoki xonim deb murojaat etish hurmat mʻnosini ifodalaydi. Bundan tashqari ingliz xalqi madaniyatida hurmat qadrlanadigan muhim tushuncha boʻlib xizmat qiladi. Izzat va ehtiromdan tashqari, hurmat axloqiy qadriyat sifatida qaraladi, mahalliy aholini oʻz madaniyati toʻgʻrisida oʻrgatadi. Ushbu axloqiy qadriyat jamiyatdagi ishtirokga taʻsir koʻrsatadigan va shaxslarning rivojlanishi va oʻz madaniyati jamiyatiga qoʻshilishida yordam beradigan jarayon sifatida qaraladi. Hurmatning qadr-qimmatini bolalik davrida oʻrgatiladi, chunki mahalliy bolalarni oʻz jamoalariga qatnashishi va ularni oʻrganish jarayoni madaniyatning muhim yoʻnalishi hisoblanadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslar nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum feʻllarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar.2001.
3. Уктамов, Х. Ф. (2017). Корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлик тизимини ташкил этишнинг назарий асослари “Ўзбекистон иқтисодиётининг инноватцион ривожланиши доирасида ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солишнинг долзарб муаммолари” мавзусида республика илмий-назарий



конференцияси 2017 йил 14-декабр, Тошкент ш. Тошкент давлат иқтисодиёт университети.

4. Nasrullayevich Khasanov, K., Alisherovna Baratova, D., Fakhriddinovich Uktamov, K., & Bokhodirovna Abdusattarova, D. (2021, December). Improving the practice of attracting financial resources from the international capital market to the corporate sector of the economy. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 718-727).

5. Dwijendra, N. K. A., Jalil, A. T., Abed, A. M., Bashar, B. S., Al-Nussairi, A. K. J., Hammid, A. T., ... & Uktamov, K. F. (2022). Improving the transition capability of the low-voltage wind turbine in the sub-synchronous state using a fuzzy controller. Clean Energy, 6(4), 682-692.

6. Tukhtabaev, J. S., Botirov, E. X., Xasanov, N., Uktamov, K. F., & Rakhimov, I. I. (2021, November). Prospects for the establishment and development of fat clusters in food safety. In Science, Education and Innovations in the Context of Modern Problems Conference, Baku, Azerbaijan (Vol. 4, No. 2, pp. 113-128).

7. Уктамов, Х. Ф. (2020). COVID-19 пандемияси шароитида аҳолини иш билан таъминлаш йўллари.“.